XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 14 - mart VI-47-46-10-0-K/22 Toshkent viloyati hokimiligi

“Yangi Angren IES” aksionerlik jamiyati ichimlik suvi tarifi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentyabrdagi “Ichimlik suvi taminoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6074-son Farmoniga asosan viloyatda ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari tariflarini tartibga solish maqsadida, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentyabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF–6074-son Farmoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “Yangi Angren IES” aksionerlik jamiyati tomonidan ishlab chiqilgan ichimlik suvi tarifi ilovaga muvofiq ma‘qullansin.

Bunda, O‘zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi Toshkent viloyati hududiy boshqarmasining 2021-yil 29-iyuldagi T-11-01/03-4519-son hamda Toshkent viloyati hokimligi Moliya bosh boshqarmasining 2021-yil 29-iyuldagi 02-20/27-05-38/2997-son xulosalari inobatga olinganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Toshkent viloyati axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i (Z.Eraliyeva), “Toshkent haqiqati” va “Tashkentskaya pravda” gazetalari

bosh muharriri (G‘.Sheraliyev)ga ichimlik suvi va oqova xizmatlarining yangi tariflari qaror rasman e‘lon qilingan kundan boshlab qo‘llanilishi yuzasidan ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borilishi vazifasi yuklansin.

4. Aholiga suv yetkazib beruvchi tashkilot, “Yangi Angren IES”dan sotib olayotgan narxning 20 % (yigirma foizi)dan oshmagan holda narxni qo‘shimcha qilib aholiga sotish ko‘rsatib o‘tilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Xudayberganov, viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Fayziyev va viloyat hokimining o‘rinbosari B.Meliyev zimmasiga yuklanlsin.

Xalq deputatlari viloyat kengashi raisi o'rinbosari **Eshovna T. R.**

Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining
2022 yil 14 martdagi
VI-47-46-10-0-K/22-son qaroriga
1-ilova

“Yangi Angren IES” aksionerlik jamiyati ichimlik suvi xizmatlari uchun amaldagi va taklif etilayotgan narxlari *(tariflar)*

T/r	Xizmat turi	Amaldagi narx (tarif) (so‘m)	Amaldagi narx (tarif) (so‘m) (QQS bilan)	Taklif etilayotgan narx (tarif) (so‘m)	Taklif etilayotgan narx (tarif) (so‘m) (QQS bilan)
Ichimlik suvi narxi					
1	**Aholi va ulgurji iste’molchilar uchun 1m³**	70,24	80,78	200	230